

Dilafruz RAXMATOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail:rahmatovadilafruz2@gmail.com

SamDChTI dotsenti, PhD H.Aslanova taqrizi asosida

TURKISTONLIK JADIDLARNING TIL HAQIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyondalari ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangilik kirishishga harakat qildilar. Ularning mustaqil davlat barpo etish, milliy mafkurani yuqori darajaga ko'tarish, xalqni savodli qilish, yangi usuldagi maktablar joriy etish va darsliklar tuzish, o'zbek tili grammatikasini yangi me'yoriy tizimga kiritish, tilimiz sofligini saqlash kabi ezgu vazifalarni maqsad qilgan edilar. Jadidlarning til haqidagi qarashlari ham ahamiyatli bo'lib, bu g'oyalar hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

Kalit so'zlar: Turkiston, jadid maktablari, o'zbek tili, darslik, maqola, Sarf va Nahv, ma'rifatparvar, arabcha va forscha so'zlar.

ВЗГЛЯДЫ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ НА РАЗВИТИЕ ЯЗЫКА

Аннотация

Проявления джадидского движения, возникшего в Туркестане в конце XIX века, в начале XX века пытались внедрять инновации во все аспекты общественной жизни. Они были направлены на решение таких благородных задач, как построение независимого государства, поднятие национальной идеологии на высокий уровень, повышение грамотности народа, внедрение школ по новой методике и составление учебников, введение узбекской грамматики в новую нормативную систему, поддержание чистоты нашего языка. Взгляды джадидов на язык также важны, и эти идеи до сих пор остаются актуальными.

Ключевые слова: Туркестан, джадидские школы, узбекский язык, учебник, статья, Сарф и Нахв, просветитель, арабские и персидские слова.

VIEWS OF TURKESTAN JADIDS ON LANGUAGE DEVELOPMENT

Annotation

Manifestations of the Jadidist movement that arose in Turkestan at the end of the XIX century, at the beginning of the XX century they tried to introduce innovations into all aspects of public life. They were aimed at solving such noble tasks as building an independent state, raising national ideology to a high level, improving the literacy of the people, introducing schools using a new methodology and compiling books, introducing Uzbek grammar into a new regulatory system, and maintaining the purity of our language. The Jadids' views on language are also important, and these ideas still remain relevant.

Key words: Turkestan, Jadid schools, Uzbek language, book, article, Sarf and Nahv, enlightener, Arabic and Persian words.

Kirish. Jadidlar harakati qisqa vaqt ichida butun Turkiston bo'ylab keng tarqaldi. Ular tomonidan ko'tarilgan muammolar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida nafaqat Turkiston, balki Kavkaz, Qrim, Tatariston xalqlari hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu harakatning Turkistondagi vakillari asosan millat taqdiriga befarq bo'lmagan ziyolilar - davlat va jamoat arboblari, olimlar, shoirlar va yozuvchilar hamda maorif xodimlari bo'lishgan. Shu bilan birgalikda, taraqqiyotparvar kuchlar orasida xalqning deyarli barcha tabaqalari - dehqon, hunarmand, savdogar, mulkdorlar, ulamolar ham bor edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Shu o'rinda jadidchilik harakati yirik arboblarning ta'lim tizimi, til siyosatiga doir qarashlari to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tsak. Jadidlar yurt kelajagini milliy dunyoqarashni saqlagan holda ta'lim tizimini isloh qilishda ko'rdilar. Buning uchun maktab darsliklari yaratishga harakat qildilar. Bu sa'y-harakatlarning natijasi o'laroq jadidchilik harakatining asoschisi bo'lgan Ismoilbek Gasprialining "Rossiya musulmonligi" (1881), "Ovropa madaniyatiga bir nazar muvozzini" (1885) singari yozgan darslik va qo'llanmalari ta'lim jarayoniga tatbiq qilingan. Rus va turkiy tillarda chop etilgan "Tarjimon" gazetasida qiziqarli maqolalar e'lon qilib borilgan. Allomaning o'zi ham 1893 yilda Toshkentga kelgan, Samarqand va Buxoroda bo'lgan va ziyolilar bilan uchrashganligi jadidlar o'rtasida aloqalar bo'lganligidan dalolat beradi [1].

Ayniqsa, Ismoilbek Gasprialining: "Ilmi yo'q, zamonaviy texnologiyalarni bilmaydigan, tushunmaydigan xalqlar o'z-o'zidan taraqqiy qilgan xalqlar bosimi ostida yo'q bo'lib ketadilar. Bu kurash millatlar uchun hayot-mamot jangidir! Bu qon to'kilmaydigan, qurol ishlatilmaydigan ko'zga ko'rinmas urushda faqatgina ilmu-fan, sanoat rivoji bilangina g'olib chiqish mumkin", degan fikri jadidlar g'oyalarining asl mag'zini aks ettiradi[2.1].

Jadidchilikning yana bir namoyandasi Abdurauf Fitrat o'z faoliyati davomida "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Sarf", "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Nahv", (1924-1930 yillar davomida olti marta nashr etilgan), "Tojik tili grammatikasi" (1930) kabi asarlari va maxsus maqolalari bilan tilshunoslik fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi.

Fitrat o'zbek leksikografiyasi rivojiga ham munosib hissa qo'shdi. U "Eng eski turk adabiyoti namunalari" nomli asarida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rgangan va asarga maxsus lug'at tuzgan. Jami 126 ta so'f turkiycha so'z izohlangan mazkur lug'atda asar tarkibidagi so'zlarning izohi keltirilgan. So'zlarni sinxron aspektida tavsiflash bilan kifoyalanmasdan, etimologiyasini ham bergan. Ayniqsa, lug'atdagi ayrim so'zning ma'nolarini izohlash jarayonida ularning usmonli turk, tatar, ozarbayjon, arab, fors tilidagi muqobillarini ham qiyoslaganligi Koshg'ariy an'anasini davom ettirganligini ko'rsatadi.

U "Tilimiz" maqolasi orqali o'zbek tilining haqiqiy targ'ibotchisi va himoyachisi sifatida namoyon bo'ldi [10]. Olim til sofligi masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu maqolada muallif "Arab, fors, rus, nemis, frantsuz tillaridan qay birining sarf kitoblarini olib qarasa, ko'ramizki, bir so'zni yasamoq uchun bir qancha yozilg'on, undan so'ng shul qoidadan tashqari qolg'on (mustasno) so'zlar deb to'rt-besh so'z ko'rsatilgan. Turk so'zlarida esa bunday so'z topilmaydir... Tilimizning avj to'g'risida ham boyligi, tugalligi bilindimi? Endi so'zni turkchaning baxtsizligiga ko'chiraman. Turk tili shuncha boyligi, shuncha tugalligi bilan baxtsizlikdan qutula olmamishdir. Turk tili dunyoning eng baxtsiz tilidir", deb yozadi va buning sabablarini o'zbek tili lug'at tarkibida arab, fors so'zlarining haddan ko'pligi, rus tili elementlarining ixtiyorsiz ravishda kirib kelayotgani, sheva so'zlaridan, hatto argo va jargon so'zlaridan oqibatsiz foydalanilayotganligi bilan izohlaydi. "Turkchani bilmas ekansiz, - deydi Fitrat, - o'rganing. Hozirgi so'zlarimizdagi arabcha, forshalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydir, desangiz to'g'ridir. Biz

ham ularni chiqarmoqchi emasmiz. Unlarni olurmiz, lekin o'zimizniki qilurmiz. Turkchallashtirurmiz" [11]. O'zbek tili leksikasi taraqqiyotida diniy tushunchalarni ifodalovchi arabcha so'zlar alohida ahamiyatga ega. Islom dinining o'tgan asrlarda olamga yoyilishi natijasida o'zbek tiliga bir qator yangi lug'aviy birliklar kirib keldi, o'zlashdi. Bir qator arabcha lug'aviy birliklar islomiy din koloritini saqlab qolish maqsadida o'zbek tilida uning o'rnini bosa oladigan muqobili bo'lmaganligi uchun tarjima qilinmasdan asl holicha qo'llangan. Fitrat ularni muomaladan chiqarmoqchi emasmiz, deganda masalaning ana shu jihatarini nazarda tutgan.

Abdullohamid Cho'lponning bu davr ilg'or qarashlariga qo'shgan hissasi uning badiiy ijodda tilimiz nozik imkoniyatlarini ochib berishida, xususan, "Kecha va kunduz" romanida badiiy vositalar yordamida ko'rsatilgan. Yozuvchining shaxs erkinligi, yurt ozodligi bilan bog'liq davr muammolarini badiiy tarzda ifodalash barobarida til birliklarini tanlash va o'rinni qo'llashida ko'rinadi. Fikrlarni implitsit tarzda obrazlar nutqi vositasida berishda uning o'ziga xos uslubi namoyon bo'ladi. Tilshunos olim S.Boymirzaeva haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Voqelikda kechayotgan hodisalarning badiiy jihatdan qayta ifodalanishi, lozim bo'lganda, qayta yaratilishi hamda hayotiy haqiqatning badiiylik bilan ta'minlangan holda ifodalanishi individual uslubning badiiy matnda ustuvorligini ta'minlaydi. Albatta, badiiy nutq matnining shakllanishida janrning umumiy belgilari, adabiy tilga oid bo'lgan boshqa stilistik hodisa – belgilar ham ishtirok etadi, biroq estetik mazmun ifodasida ularning o'rnini individual uslub vositalariga qiyosan nisbiydir. Individual uslub badiiy matn lingvostilistik qobig'ining, uning mazmun doirasining markazida turadi" [2]. Cho'lpon romandagi obrazlar nutqi misolida til masalasidagi qarashlarini ham aks ettirgan.

"Adabiyot nadir?" maqolasida "Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngul tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg'on bir guldur", – deb yozgan va ushbu maqolasida adabiyot, ruh, taraqqiy, inqiroz, tarix, inqilob singari arab tilidan, fidokor, choyxona, umid, shodon kabi forsiy tillardan olingan so'zlardan foydalangan. Asarda muallifning rus tiliga oid so'zlarni qo'llamaganligi ko'zga tashlanadi.

Xalqimiz orasida Abdulla Avloniyning 1921 yilda yozilgan "Hifzi lison" maqolasidagi "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur", – degan fikrlari mashhurdir[5]. Ayniqsa, muallifning "Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan-kun unutmak va yo'qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arab, forsiy ulangani kamlilik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz... Zig'ir yog'i solub moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur" degan fikrlari til taraqqiyotining o'tgan asr boshlaridagi holati to'g'risida muayyan tasavvur uyg'otadi. Avloniyning "Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir" degan fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda.

Muhokama va natijalar. Ma'lumki, insonning madaniy-ma'naviy qiyofasi, xulqi avvalo, uning tilida aks etadi. Shu bois Abdulla Avloniy nutq jarayonida so'zlarni o'rinni va maqsadga muvofiq qo'llash lozimligini, aks holda o'rinsiz so'z qo'llash "qovoqari kabi quruq g'ung'ullamoq" ekanligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy qarashlarining yana bir e'tiborli tomoni shundaki, u so'z qabul qilishda zamondan ortda qolmaslikka chaqiradi. Olim agar taraqqiyot tufayli qabul qilingan tushunchani o'z tilimizda ifodalash imkoni bo'lmasa, uning boshqa tillardagi ko'rinishlarini qo'llash mumkin deb hisoblaydi. U iloji boricha bu so'zlarning o'zbek tilidagi muqobilidan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi va quyidagilarni yozadi: "O'z uyimizni qidirsak va axtarsak yo'qolganlarini ham toparmiz. "Yo'qolsa yo'qolsun, o'zi boshimga tor edi", – deb Yovrupo qalpog'ini kiyub, kulgi bo'lmak zo'r ayb va uyatdur" [5].

Shu o'rinda shu narsani ta'kidlab o'tishni istardikki, tilimizda "nutq madaniyati" tushunchasi ostida nutqning aloqaviy sifatleri – tozaligi, to'g'riligi, mantiqiyliqi, ifodaliligi, rostligi, ta'sirchanligi, obrazlilik kabi sifatleri tushuniladi. Nutq oldiga qo'yiladigan, asrlar davomida shakllangan bu talablar Koshg'ariy, Navoiy, Bobur asarlarida ham uchraydi. Abdulla Avloniy asarlarida ham bu an'ananing davom etganligi seziladi.

Adib nutq madaniyatiga oid fikr bildirar ekan, nutqda o'rinni bilan shirin so'zlash, qisqa va ma'noli so'zlagan kishigina o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi deb hisoblaydi. Muallif maqolada:

*Go'zallik yuzda ermas, ey birodar,
So'zi shirin kishi har kimga yoqar.
So'zing oz bo'lsinu ma'noli bo'lsun,
Eshitkanlar qulog'i durga to'lsun[5].*

misralarini keltirish bilan xushmuomalalilik, ma'noli so'zlash va tinglovchida yaxshi taassurot qoldirish g'oyasini ilgari suradi. Abdulla Avloniy ham boshqa jadidlar singari arab, fors, rus tillarini ham yaxshi o'rgangan ma'rifatparvar edi.

Jadidlar g'oyasining ilg'or targ'ibotchilaridan bo'lgan Munavvar qori Abdurashidxonov o'z faoliyatida maktab va madrasalar faoliyatini isloh qilish, ta'lim tizimiga zamonaviy dunyoviy fanlarni kengroq olib kirish g'oyasini ilgari surdi. Madrasalarda asosiy darslarni arab tilida emas, balki o'zbek tilida olib borish, diniy saboqlar bilan cheklanib qolmaslik, ijtimoiy, dunyoviy fanlarni o'qitish masalasini qo'ydi. Eski maktablar faoliyatiga chek qo'yib, "usuli savtiya" maktablarini ochish, darsliklar yaratish, umuman, o'zbek tili mavqeini oshirish uchun harakat qildi.

Munavvar qori Abdurashidxonovning 1925 yilda yozilgan Qayum Ramazon va Shorasul Zunnun bilan hammualliflikdagi uch bo'limdan iborat "O'zbekcha til saboqlig'i" asari tilshunoslik rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shilgan. Olim milliy teatrimizda o'zbek tilining qo'llanilmasligini tanqidga olib, 1914 yil 27 fevralda Toshkentda Kolizey teatri binosida "Turon" teatri truppasining rasmiy ochilishi marosimida so'zlagan nutqida "Na uchun o'z tilimizda tiyotrlar yasab, oramizda bo'lg'on buzuq odatlarni yo'q qilmoqg'a harakat qilmaymiz? Na uchun Turkistonda birgina bo'lg'on jamiyatimizni va faqirlikdin inqirozga yuz tutgan maktab va maorifimizni obodlig'iga sa'y va ko'shish qilmaymiz?" deb xalqqa murojaat qildi[6].

Jadidlarning til borasidagi ilg'or fikrlari adibning Sirdaryo viloyati 1-tuman xalq ta'limi inspektoriga yo'llagan iltimosnomasida: "Ruslar bilan doimiy ravishda muloqotda bo'lish, ayniqsa, savdo, ma'muriy, temir yo'l kabi turli jabhalarda faoliyat olib borish uchun mahalliy aholi har xil bilimlarni egallashda qurol bo'lgan rus tilini bilishi kerakligiga iqror bo'lyapman", degan fikrlarni bayon etganligida ham ko'rinadi[6].

Samarqand jadidchilik maktabining yirik vakili Saidrizo Alizoda "Har millat o'z tili ila faxr etar" maqolasida til sofligini saqlash lozimligini uqtiradi: "Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug'at va so'zlarni qo'sha bersak, bir oz zamonda til va milliyatimizni yo'qoturmiz. Milliyatimizni yo'qotganda diyonatimiz o'z-o'zi ila, albatta, yo'qolur. Bas, bizga tilimizni ajnabiy so'zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadir"[12].

Samarqand ma'rifatparvarlari orasida yangi jadid maktabining ilg'or muallimi sifatida tanilgan **Hoji Muin** vaqtli matbuotda til masalasi bo'yicha qator maqolalar e'lon qilish barobarida turkiy xalqlar uchun yagona tilni joriy qilish masalasini

ko'taradi va bu masalani hal etish nihoyatda qiyin ekanligini, ungacha shug'ullanish lozim bo'lgan ish – xalqning savodxonligini oshirish ekanligini aytadi. “Albatta, bu ishga ham til masalasi zo'r ro'llar o'ynaydur. Modomiki, bir xalq ichida maorif tarqatish xalqning o'z ona tili bilan bo'latur, biz ham xalqimizni oqartish uchun o'zbek tiliga ahamiyat bersak lozimdur. Ya'ni o'zbekcha tilni o'zbeklar anglarliq bir holg'a qo'yishimiz kerakdir. Bu ish esa tabiiy til birlashtirishga xilof bir hol bo'lib qoladir. Shuning uchun umumturklar uchun mushtarak adabiy bir til vujudga chiqarmoq masalasini qo'zg'atish biz uchun hanuz vaqtsiz, ham foydasiz bir ishdur”, deydi.

“Turkistonda «tavhidi lison»chilarning birinchisi, manim bilganimcha, marhum Behbudiy edi. Behbudiy afandi maktab uchun bir necha risolasini (til birlashtirishga xidmat qilsun deb) o'rtaroq shevada yozishg'a tirishdi. Bu maqsadni asarlarining muqaddimasida ham yozib o'tdi. “Samarqand” gazetasida ham shu maqsadni ta'qib etdi. Hatto “Oyna” majmuasining birinchi yilida ham boyog'i fikridan qaytmadi. Bu to'g'rida Behbudiy afandi bilan ba'zan muhohasa qilishar edik. Mumkin qadar xalq tushunarlik darajada sodda o'zbekcha yozishning kerakligini aytar edik. Lekin ul hech qabul qilmas edi.

Behbudiy afandi aytar edi: “Har narsaning taraqqiy qilishidek tilning ham yuksalishi lozimdur. O'zbek tilining yuksalishi turkcha (usmonliha)ga yaqinlashishi bilan bo'latur. Biz o'zbekchani shu yo'l bilan yuqori ko'tarsak, turklar ham o'z tillaridan mumkin qadar forscha va arabcha so'zlarni chiqarsalar, shuning bilan o'rta bir sheva maydong'a chiqib til birlashtirish vujudga chiqar”[7].

Taraqqiyparvar jadidchilik harakatining samarqandlik yana bir vakili **Vadud Mahmudning** tilga oid muhim qarashlari adabiy tanqid doirasida bayon qilingan. Allomaning “Tanlangan asarlar”iga so'zboshi yozgan prof. N.Karimov ham “Vadud Mahmud adabiy-tanqidiy maqolalarida asarning g'oya va mazmuniga emas, avvalo, uning nafisligi va nozik yasalishlariga, ya'ni badiiyligi, shakli, uslubi va tiliga e'tiborni qaratadi”, degan fikrni aytgan [9]. V.Mahmud adabiy tilini so'zlashuv tilidan farqlaydi va ularga nisbatan chig'atoy va o'zbek so'zlarini ishlatadi. “Alpomish” dostonidan parcha keltirib, ana shu tilni o'zbekcha, deydi. “Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz” maqolasida “Bu til chig'atoydan ko'b jihatdan ayriladurg'on bir tildir. Buning uslubida o'zgachadir. Abulg'ozining “Shajarai turk”i esa bu til bilan yozilgan emas, balki chig'atoy tili bilan yozilgan. Mana shu keltirgan namuna va dalillarimiz bu da'vomizni isbotiga kifoyat etsa kerak. Bundan shu natija chiqadirk, bu kungi adabiy tilimiz va Behbudiyning tili va uslubi, A. Sa'diy aytganicha o'zbekcha bo'lmasdan yuqorida ko'rsatganimizcha chig'atoychadir”, degan fikrni aytadi[9].

Ona tilimizning bir zamonlar chig'atoy tilimi, yoki boshqa bir tilmi, qanday nomlanishidan qat'iy nazar, o'z davrida yozma va og'zaki shakllari bo'lgan. Mumkin qadar bu tilni adabiyashtirish va me'yorlashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlar esa jadidlarning alohida xizmatidir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston tarixi, II jild (XIX asr II yarmi – 1991 yil avgust) Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2015. – B. 162
2. Ismoilbek Gaspirinskiy – Turkiy xalqlarning buyuk ma'rifatchisi, jadidchilikning otasi. t.me/historyfactsuz.
3. Boymirzayeva S. Badiiy matnda qo'shma gap. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2008. – B.6.
4. Adabiyot nadir? –“Sadoi Turkiston” gazetasining 1914 yil 4 iyun soni.
5. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – B.61.
6. Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. – B.19.
7. Muin Hoji. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. www.ziyouz.com kutubxonasi, – B.85-86.
8. Karimov N. Munaqqid haqida so'z / Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007, – B.2.
9. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007, – B.57,58.
10. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviya, 2006, – B.57,58.
11. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviya, 2006, – B.110.
12. «Oyina» gazetasining №14 soni.